



## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNI MUSIQIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH USLUBLARI.

*Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi, Guliston davlat pedagogika  
instituti Musiqa ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi  
e-mail: [abduvaxobova996@gmail.com](mailto:abduvaxobova996@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari va boshlang'ich sinif o'quvchilarining musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali uslublari yoritiladi. Shuningdek o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda musiqiy eshituv, ritm, xotira, intonatsiya va ijrochilik qobiliyatlarini shakllantirish bo'yicha metodik tavsiyalar berilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol o'yinlar va integratsion yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Musiqiy qobiliyat, ritm, eshituv, xotira, ijrochilik, pedagogik yondashuv, interfaol metod, musiqiy o'yin, iste'dod.

**Аннотация:** В статье рассматриваются эффективные методы развития музыкальных способностей учащихся средней и начальной школы. Даны методические рекомендации по формированию музыкального слуха, ритма, памяти, интонирования и исполнительских навыков с учетом индивидуальных особенностей учащихся. Также анализируется эффективность современных педагогических технологий, интерактивных игр и интегративных подходов.

**Ключевые слова:** Музыкальные способности, ритм, слух, память, исполнительство, педагогический подход, интерактивный метод, музыкальная игра, талант.



**Abstract:** This article discusses effective methods for developing the musical abilities of general secondary school and primary school students. Methodological recommendations are given on the formation of musical hearing, rhythm, memory, intonation and performance skills, taking into account the individual characteristics of students. The effectiveness of modern pedagogical technologies, interactive games and integrative approaches is also analyzed.

**Keywords:** Musical ability, rhythm, hearing, memory, performance, pedagogical approach, interactive method, musical game, talent.

**Kirish:** Musiqa inson qalbini tarbiyalaydigan, uning ruhiyatiga ijobiy ta'sir etadigan eng kuchli san'at turlaridan biridir. Ayniqsa, bolalik davrida musiqiy tarbiya shaxsning estetik didini, emotsional sezgirligini va ijodiy qobiliyatini shakllantiradi. Shu sababli umumiy o'rta ta'lim maktablari, xususan boshlang'ich sinf bosqichida o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa — inson qalbining tili, ruhiy olamini boyituvchi, estetik didni shakllantiruvchi san'at turi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqqa darslari o'quvchilarda ijodkorlik, estetik zavq, ritmni his etish, tinglash madaniyati va ifoda qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli har bir o'quvchining musiqiy bilmi oshib boraveradi. Musiqa insonning ichki olamini tarbiyalaydi, ruhiy holatini yengillatadi va estetik didni shakllantiradi. Shuning uchun, umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqqa darslari o'quvchilarda nafaqat ijrochilik ko'nikmalarini, balki ularning ichki dunyosini boyitish, axloqiy-ruhiy kamolotga yetkazish vositasi sifatida qaraladi. Bugungi kunda musiqiy qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirishda o'qituvchining mahorati, psixologik kuzatuvi hamda to'g'ri metod tanlashi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Asosiy qism



Musiqiy qobiliyat tushunchasi. Musiqiy qobiliyat — bu shaxsning musiqani eshitish, his qilish, tushunish va uni ijro etish qobiliyatidir. U quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

Musiqiy eshitish qobiliyati (intonatsion va ritmik)

Musiqiy xotira

Ijodiy ifoda (kuylash, chertish, raqs harakati orqali)

Estetik did. Bu qobiliyatlar tabiatan mavjud bo'lishi mumkin, biroq ular o'qituvchi rahbarligida maqsadli mashg'ulotlar orqali rivojlanadi va o'stirib boriladi.

1. Kuylash orqali rivojlantirish. Kuylash bolalarning musiqiy eshituvini, tovushni to'g'ri chiqarish, ohangni ushlab turish va so'z bilan uyg'unlashtirish qobiliyatini rivojlantiradi. Har kuni sodda, bolalarga tanish qo'shiqlarni birgalikda kuylash foydali.

2. Ritm mashqlari. Qo'l chalish, oyoq bilan urish, predmetlar yordamida ritmik harakatlar qilish orqali bolalarda ritmni sezish va musiqaga moslashish ko'nikmalari shakllanadi.

Misol: “Qo'lni ur, tizzangga ur, yana chapga buril” kabi o'yinlar.

3. Musiqiy o'yinlar

“Ohangni top”, “Qaysi asbob chalinyapti?”, “Qo'shiqni davom ettir” kabi o'yinlar o'quvchilarda musiqiy xotira, eshitish va tafakkurni rivojlantiradi. Shu o'yinlar orqali musiqiy ritmik hislar rivojlanadi.

4. Musiqiy tasvir va his-tuyg'ularni ifodalash



O'quvchilarni musiqa tinglash jarayonida o'z his-tuyg'ularini rasm, harakat yoki so'z orqali ifodalashga undash kerak. Bu usul ularning tasavvurini va emotsional idrokini kuchaytiradi.

### 5. Cholg'u asboblardan foydalanish.

Oddiy bolalar cholg'u asboblari (triangel, baraban, metallofon va boshqalar) yordamida ijro mashqlari o'quvchilarda tovush balandligi, ritm va tembrni farqlashni o'rgatadi.

### 3. O'qituvchining roli.

Musiqa o'qituvchisi o'quvchilarning individual qobiliyatlarini inobatga olishi, ularda musiqaga muhabbat uyg'otishi zarurdir. Dars jarayonida har bir bolaning ishtirokini rag'batlantirishi, musiqiy o'yinlarni, jamoaviy kuylashni va harakatlar orqali darsni jonlantirishni bajarishi muhimdir.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishi (interaktiv musiqiy dasturlar, videodarslar, audiomashqlar) yordamida darslarni qiziqarli tashkil etish ham yaxshi samara beradi.

Musiqiy qobiliyatni aniqlash mezonlari quyidagilardan iboratdir. O'quvchilarda musiqiy iste'dodni aniqlashda quyidagi mezonlardan foydalaniladi:

**Eshituv qobiliyati** – tovush balandligini farqlay olish, ohangni to'g'ri eslab qolish;

**Ritm hissi** – tempni ushlay olish, qarsak yoki harakat bilan ritmni ifodalash;

**Xotira** – eshitilgan musiqani eslab qayta kuylash;

**Musiqaga munosabat** – musiqani tinglaganda paydo bo'ladigan hissiy javoblar;



**Ijrochilik** – qo‘shiq kuylash, cholg‘uda chalish yoki sahnada o‘zini tutish ko‘nikmasi. Bu hamma aytib o‘tilgan holatlarni o‘qituvchi o‘quvchilardan topishi va rivojlantirish muhim.

Aniqlash jarayonida o‘qituvchi sinov mashqlari, musiqiy o‘yinlar, tinglash testlari va individual kuzatish usullaridan foydalanadi. Masalan, 1–4-sinf o‘quvchilari uchun “Ritmni top”, “Qaysi asbob chalinyapti?”, “Ohangni takrorla” kabi o‘yinli topshiriqlar juda samarali hisoblanadi. Bu mashqlarni yuqorida aytib o‘tganidek qo‘llash mumkin ammo yosh doirasi juda ham muxumdur. Musiqiy qobiliyatni rivojlantirish uslublaridan yana eshituvni rivojlantirish – o‘qituvchi o‘quvchilarni turli tovushlarni farqlashga, intervallarni ajrata olishga o‘rgatadi.

Masalan: pianinoda ikki tovush chalib, “qaysi biri balandroq?” deb so‘raladi. Ritm mashqlari – metronom, baraban yoki qarsaklar yordamida tempni ushlab turish, o‘yin orqali ritmik harakatlar bajarish. Kuylash va jo‘rnavozlik mashqlari – xor, yakka kuylash, bolalar uchun mos diapazondagi qo‘shiqlardan foydalanish. Musiqa va harakat integratsiyasi – raqs elementlari, drammatizatsiya, musiqali o‘yinlar orqali ijodkorlikni rivojlantirish.

Integratsion yondashuv – musiqani adabiyot, tasviriy san‘at yoki jismoniy tarbiya bilan bog‘lash. Bu uslublar o‘quvchilarda musiqaga nisbatan qiziqish uyg‘otadi, darslarni jonli, ijodiy muhitda o‘tkazishga imkon beradi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinfda musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish o‘quvchilarning estetik dunyoqarashi, ijodkorligi va hissiy sezgirligini shakllantiradi. Bu jarayonda o‘qituvchining metodik yondashuvi, musiqiy faoliyat turlari va bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish eng muhim omillardandir. Musiqiy tarbiya orqali bola nafaqat qo‘shiq kuylaydi yoki ritmni eshitadi, balki go‘zallikni his etadi, mehr-muruvvatli va madaniyatli inson sifatida voyaga yetadi. O‘quvchilarda musiqiy qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirish – o‘qituvchidan metodik bilim, pedagogik sezgirlik va ijodiy yondashuvni talab etadi.



Har bir bola tabiatan ma'lum darajada musiqiy iste'dod sohibidir, faqat o'sha iste'dodni vaqtida ko'ra bilish va to'g'ri yo'naltirish zarur. Shuning uchun o'qituvchi darslarda musiqiy o'yinlardan, tinglash mashqlaridan, amaliy kuylash va jo'rnavozlikdan faol foydalanishi lozim. Zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan musiqiy ta'lim o'quvchilarning estetik dunyoqarashi va ijodiy fikrlashini shakllantiradi

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova, Z. "Musiqqa ta'limi metodikasi". – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. Xolmuhamedov, B. "Musiqqa darslarini tashkil etishning samarali usullari". – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
3. Abdullayeva, M. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik tarbiyasi". – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PQ–4479-sonli qarori "Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida".
5. Vygotskiy, L.S. "Psixologiya razvitiya rebenka". – Moskva: Pedagogika, 1984.
6. D. K. Kabalevskiy. "Musiqani sevishga o'rgatish". – Toshkent: O'qituvchi, 1982.
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti: "Umumiy o'rta ta'limda musiqqa madaniyati fani dasturi". – Toshkent, 2022.
8. Hasanov, Sh. "Musiqiy psixologiya asoslari". – Toshkent: San'at, 2018.
9. www.edu.uz (<http://www.edu.uz/>)